



“BERDAQ IJODIDA XALQ RUHI VA MADANIY MEROS”

Sobirova Nasibaxon Jamoliddin qizi

Toshkent Pediatriya Tibbiyot intituti

2-pediatriya va Fundamental Tibbiyot fakulteti 1 – kurs talabasi

Email: jamoliddinovnanasibaxon7@gmail.com.

Tel: +998 33) 212 – 75 – 70.

Annotatsiya:

Mazkur maqolada Berdaq ijodining xalq ruhi va madaniy meros bilan bog'liqligi, uning she'riyatida milliy qadriyatlar, xalqona ruh, tarixiy xotira va madaniy an'analar aks etishi tahlil qilinadi. Berdaq asarlaridagi vatanparvarlik, adolatparvarlik, ilm – ma'rifatga intilish va insonparvarlik g'oyalari hozirgi zamon uchun ham dolzarbdir. Ushbu maqola orqali Berdaq ijodi xalqimiz ma'naviy boyligining uzviy qismi ekanligi va uning asarlari milliy o'zlikni anglashda qanday ahamiyat kasb etishi yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: demokratik, internatsionalist, muarrix, solnomanavis, poeziya, tema, ulus.

Berdimurod Qarg'aboy o'g'li Berdaq Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq tumanida baliqchi oilasida tug'ilgan. Yoshligida ota – onasi vafot etgach, shoir ovulma – ovul yurib tirikchilik qiladi. Dastlabki tahsilni ovulidagi maktabda keyinchalik madrasada davom ettiradi. Berdaqning ijodi 18 – 19 yoshlarida do'mbira chertib she'r aytishidan boshlangan. 25 yoshida iste'dodli shoir sifatida xalq orasida tanildi. Berdaq xalqining ahvolini yaxshi tushunardi. Uning “Xalq uchun” she'rida mavjud hayot hech bir bo'yoqsiz tasvirlangan. Shoirning “Shajara”, “Xorazm”, “Amongeldi”, “Aydosbiy”, “Ahmoq podsho” asarlarida ilk bor jasokash, munis ayollar siymosi chizilgan. O'zbek kitobxonlari 1961 – yilda Berdaqning she'rlar to'plamidan bahramand bo'lishdi.

Yigit bo'lsang arslon kabi tug'ilgin,
Hamisha sen xizmat etgil xalq uchun.



Yigit bo'lsang arslon kabi tug'ilgin,
O'zim deyman, g'amxo'rlik qil xalq uchun.

Shoirning nazdida, yigit kishi el yurti uchun xizmat qilsa, murodga yetadi.
Dushmanning dodini bersa, Vatanni himoya qilsa, ulus undan minnatdor bo'ladi.

Yetarsan murodga, gar xizmat etsang,
Eling yo'llaganda har qayon ketsang.
Har qachon dushmanning boshiga yetsang,
O'zim deyman, g'amxo'rlik qil xalq uchun.

Adabiyot millatning qalb nidosi va ruhi bo'lib, unda xalqning tarixi, orzu – umidlari va dunyoqarashi aks etadi. Berdaq – shunday ijodkorlardan biri bo'lib, uning asarlari milliy qadriyatlarimiz va madaniy merosimizni o'zida mujassam etgan. Shoirning ijodi har jihatdan chuqur falsafa va ijtimoiy mazmun kasb etib, xalqning turmush tarsi, ma'naviy boyligi va tarixiy tajribasini aks ettiradi. Berdaqning she'riyati xalqona ruh bilan yo'g'rilgan bo'lib, unda milliy an'analar, urf – odatlar va turmush tarzining boy tasviri kuzatiladi. Ayniqsa, uning vatanparvarlik she'rlari xalqning erkinlikka intilishi, ozodlikka bo'lgan ehtiyoji va irodasini yuksak badiiylilikda ifoda etadi. Shoir o'z asarlarida milliy o'zlikni anglash va uni asrab – avaylashga chorlaydi.

Madaniy merosni asrab – avaylash har bir millatning uzviy burchidir. Berdaq bu burchni o'z ijodi orqali ustalik bilan amalga oshirgan. Uning asarlarida tarixiy xotira chuqur o'rin egallagan. Shoir xalqning o'tmishidan saboq olib, kelajakka nisbatan mas'uliyat bilan qarashga undaydi.

Bilim insonni yuqori cho'qqilarga olib chiqadi. Agar yigit bilimdon bo'lsa, ustiga – ustak hunar egasi bo'lsa, xalqqa undan katta foyda keladi.

Yigit degan yaxshi bilimdon bo'lur,
Bilim, hunar yigit uchun shon bo'lur.
Aqlsizlar ishi ko'p yomon bo'lur,



Ahmoqlar hech xizmat etmas xalq uchun.

Berdaq ijodida ilm – ma’rifatga bo’lgan intilish ham muhim mavzulardan biridir. U xalqni ilm olishga, jaholatga qarshi kurashishga va ma’rifat orqali o’z kelajagini qurishiga chaqiradi. Bu g’oya shoirning ko’plab asarlarida o’z ifodasini topgan Shoirning ijodi xalq ruhi va madaniy merosni yuksak saviyada namoyon etuvchi badiiy manbadir. Uning asarlari bugungi kun yoshlariga ham katta ma’naviy saboq beradi, milliy o’zlikni anglash va qadriyatlarni avaylashda muhim manba bo’lib xizmat qiladi. Berdaqning boy ijodiy merosi o’zbek adabiyoti va xalqimiz madaniy xazinasini sifatida abadiy qadirlanadi. Berdaqning hayoti davomida Qoraqalpog’iston tarixida ko’p hodisalar ro’y bergan, bu hodisalar xalqning kelajagigava taqdiriga katta ta’sir ko’rsatgan. Bu Qoraqalpoq xalqining ozodlik uchun kurashi Ernazarbiyning rahbarligida 1855 – 1856 – yillarda qoraqalpoq, o’zbek, turkman va qozoq mehnatkashlarini kurashi haqida edi.

Berdaqni 1900 – yilda Petro – Aleksandrovska shahriga Amudaryo bo’limi boshlig’i oldiga chaqirdilar, shoir bu taklifni qabul qildi va ixtiyoriy yo’lga tushadi. Ammo shoir yo’lning yarmida kasallikka duchor bo’ladi va uyiga qaytishda majbur bo’ladi. Birozdan so’ng esa shoir vafot etadi. Shuning bilan uning og’ir, azobli, baxtsiz hayoti tugaydi. Lekin uning hayoti jafoda, azob – uqubatiga qarshi, feodallar va boylarning o’zboshimchaliklariga qarshi kurash bilan o’tdi. U xalqni baxtli kelajagini o’ylab buyuk orzu bilan oldinga qadam qo’yayotgan edi.

Berdaqning o’limi xalqqa juda qattiq ta’sir qildi, ayniqsa, shoirning o’lkasida yashovchi mehnatkash xalqiga. Ko’p xalqlarning Berdaqqa bo’lgan ajoyib va cheksiz sevgisini biz, XIX – asr qoraqalpoq shoiri Otesh Aminbey o’g’lining she’rlarida ko’rishimiz mumkin. Bu she’rlar Berdaqning o’limiga bag’ishlangan. Oteshning “Berdaqning o’limi”¹ degan she’ri M.Yu. Lermontovning “Shoirning o’limi” degan she’riga o’xshaydi, bu she’rda Lermontov rus adabiyotining shoiri A.S.Pushkin haqida yozgan. Qoraqalpoq shoiri Oteshning aytishiga

¹ Худойбергенов К. Мировоззрение Бердаха. Нукус, 1987. 324 с.



ko'ra, Berdaq vafot etganida marhumni qoraqalpoqlargina emas, o'zbeklar, qozoqlar, tatarlar va ruslar ham birgalikda oxirgi yo'lga kuzatib borganlar. Berdaqqa qadar qoraqalpoq poeziyasida qo'shiqning tema turi 11 bo'ginli – to'rt satrli, 9 bo'g'inli – to'rt satrli, 6 bo'g'inli – to'rt satrli turlaridan iborat bo'ldi. Berdaq ana shu uch turni uchchovidan ham foydalangan. Ayniqsa 9 bo'g'inli to'rt qatorli qo'shiq turini ko'p qo'lladi. Uni yana rivojlantirdi, ham voyaga yetkazdi. Bu to'rtlik ko'pchilik xalqning o'qishi uchun va aytishi uchun yengil va tushunarli edi. Shuning bilan bir qatorda, bu o'lchovlarni qofiya ham vazniga ko'p o'zgarishlar kiritdi. Berdaqning faqat lirik she'rlarining mohiri bo'lib qolmay, shuning bilan bir qatorda yirik poemalarni ham ustasidir. Bundan tashqari Berdaq Navoiyning falsafiy qarashlarini yaxshi o'rgangan va o'z falsafiy qarashlarida o'xshashlik borligini bilgan edi. Chunki Berdaq ham Navoiy kabi har bir odam o'zi uchun tabiat tomonidan belgilangan yuksak vazifa va martabani anglagan holda ish tutishi kerak deb hisoblar edi. Uning yurishi – tirishi, xatti – harakati, maqsad va niyatlari insoniylikning baland darajasiga munosib bo'lishi shart. Shoir aytadiki inson qadr – qimmatini, shaxsiy fazilatlarini har narsadan ustun qo'yar ekan, inson zotiga mansublikning o'zi kishini ulug' qilishini alohida ta'kidlaydi.

Bu haqida Navoiy ham quyidagilarni ta'kidlagan edi.

Kishilarning bir – birlariga munosabatlarida so'zning ahamiyati katta, chunki so'z san'ati faqat inson uchun ato etilgan. Insonning insonligi so'z bilandir. Hayvonlar so'zlashish imkoniyatidan mahrum. “Saddi Iskandariy”da Navoiy shunday yozadi:

Takallum bila kimsa inson erur,

So'zi yo'q bahoyimga ne son erur.

Shuning uchun og'izdan chiqayotgan so'z suhbatdoshga in'om etilayotgan gavhardek qimmatli bo'lsin. Yaxshi so'z bilan dushmanni rom etib, so'ng barcha murod – maqsadni hosil qilish mumkin deydi. Lekin hayotda so'zlarni noto'g'ri qo'llash bir insonni hayotiga nuqta, bir insonni butunlay badnom qilib qo'yishi hech gap emas degan edi.

Berdag ham o'z asarlarida faqatgina insonni ulug'lab, uning ijobiy sifatlari qanday bo'lishini tasvirlabgina qolmadi. U o'z asarlarida tugal ma'nodagi ijobiy



qahramonlar siymolarni ham yaratdi. Bu qahramonlarida mukammal insonga xos sifatlarni mujassamlashtirishga harakat qildi. U inson nomiga isnod keltiruvchi nomunosib shaxslarning qilmishlarini ayovsiz tanqid ostiga oldi. Masalan uning “Bu yil”² degan asarini olsak.

Tinch qo'ymayin shu holiga,
Odamni soldi yo'liga.
Haydadi ariq bo'yiga,
Og'irchilik bo'ldi bu yil.

Bordik qazuvga oziqsiz,
Kaltaklar edik yoziqsiz.
Bog'liqda turdik qoziqsiz,
Og'ir azob bo'ldi bu yil.

deb, xalqni boylar, beklarning arig'ini qazish uchun erksiz haydalganini yozadi, azob va uqubatlar ko'rganini aytadi. Berdaq Xiva xonlarini, amaldorlarini, bek, otaliqlarni ajratib o'tirmay “baribir, cho'chqa cho'chqani hech vaqt yorgan emas” deb yozadi.

Berdag bu davrda qoraqalpoq beklari, otaliq va boylari tomonidan odamlarni mol o'rnida ishlatib, qo'shga qo'shganini, zolimlikning haddan oshganini o'zining ko'p qo'shiqlarida ochiqdan – ochiq yozadi. Shu vaqtdagi amaldorlarning, otaliq va beklarning xalqqa ko'rsatgan xusumatini Berdaq:

Qonli qilichin qayradi,
Xalqning qo'lini boyladi.
Odam qo'shib qo'sh haydadi,
Beklar zolim bo'lgan ekan.

Demokrat shoir, xalqning g'amxo'r kuychisi, hukmron sinflarni keskin fosh etgan, yuksak istedod sohibi, taraqqiyotparvar mutafakkir, bilimdon

² Berdaq. Tanlangan asarlar. T.:1987.b.34.



muarrix o'z davrining solnomanavisi ulug' insonlar va internatsionalist, mohir so'z ustasi Berdaq Berdimurod Qarg'aboy o'g'li qoraqalpoq xalqining buyuk shoiri xalq qalbida mangu yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Худойбергенов К. Мировоззрение Бердаха. Нукус, 1987. 324 с.
2. Berdaq. Tanlangan asarlar. T.:1987.b.34.
3. Tojiboyev A. Sir qo'shiqlari. T. 1970.
4. Nurmuhammedov M. Qoraqalpoq adabiyoti tarixi. T. 1978.
5. Berdaq she'riyatidan Mirtemir tarjimasi. T.:1977